

BILINGVIZMNING IJOBİY VA SALBIY JIHATLARI

Maxmudova Nazokat Latifovna

Farg‘ona shahar 8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda zamon talablari asosida ona tilidan tashqari bir necha tillarni o‘zlashtirish oddiy holatga aylanib qolgan. Bilingvizmning ijobiy tomonlari ko‘p va bu o‘z o‘ziga kelayotgan kelajak uchun juda katta imkoniyat, lekin shu bilan birga o‘z milliy tilimizni sof saqlab qola olmaslik havfi ham muammo bo‘lib qolishi haqida fikr yuritamiz.

Kalit so‘zlar: bilingvizm, monolingvizm, til o‘rganish, ko‘p tillilik, bolalar, ona tili, tojik tili, muhit, tarbiya, Alisher Navoiy...

Bilingvizm nima? Bilingvizm (Bilingualism) - bu ikki tildan foydalanish va uni tushuna olish, dialektikasidan mukammal bilish qobiliyati. Bu ijtimoiy talab yoki biror sabab bilan yuzaga keladi. Uning tabiiy vujudga kelishida bir davlat hududida ikki va undan ortiq xalq vakillarining jips yashashi ham sabab bo‘ladi. Agar shaxs ikki va undan ortiq tildan foydalana olsa yoki tushuna olsa, u ko‘ptilli shaxs hisoblanadi.

Jumladan, bilingvizmning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Hozirgi kunda tadqiqotchilar bilingvizm va monolingvizm ustida ochilmagan masalalar ko‘pligi uchun bir qancha ishlar olib borishmoqda. Psixologlarning fikricha, bilingvizm-dixotomiya emas: hech kim monolingv yoki bilingv bo‘lolmaydi. Kuzatishlar natijasida bilingvizm ikki yondashuvga asoslanib, “hayoti davomida doimiy ravishda ikki tilda ravon so‘zlashadigan insonlar” sifatida tavsiflanadi. Ikkinchi yondashuvda esa, bilingvizm-kontinuum. Til ma‘lum ijtimoiy muhit ta‘sirida kelib chiqishi ham sir emas. Bolalarning til bilish salohiyatining shakllanishi, oilada va ko‘chada kim bilan qaysi tilda ko‘proq so‘zlashishlariga ham bog‘liq.

To‘liq kasb etmagan tadqiqotlarga ko‘ra, bilingv bolalar monolingv bolalar bilan taqqoslaganda salbiy sharoitda bo‘lgan, -degan farazlar bor. Ular maktabda yomon o‘qigan, testlarni past bahoda topshirgan va hokozo. Tadqiqotlar xulosalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, bilingvizm aqliy rivojlanishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va bolani tillar muloqotida chalkashtiradi.

Men bu fikrga qisman qo‘shilaman. Shaxsiy tajribamga asoslanib, bilingvizm bolalar ham yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi mumkin. Aynan tojik-o‘zbek tilida so‘zlashadigan bolalar ustida fikr yuritadigan bo‘lsam, ular ham kichik yoshdan (uyda tojik tilida gaplashadigan bolalar misolida) o‘zbek tilini yaxshi o‘zlashtira olishgan. Lekin uyda ham o‘zbekcha gaplashish kerak. Masala bunday bo‘lmagan hollarda, bola ehtimolli vaziyatlarga duch kelishi kuzatilgan.

Masalan, diktant yoki insho yozish jarayonlarida “u” va “o’ ” harflarini o’rin almashish holatlari tez-tez kuzatilishi biz boshlang’ich sinf ustozlariga sir emas. -o’rin-urin, -o’lmas-ulmas, -o’yin-uyin, -unli-o’nli kabi so’zlar misolida xatoliklar vujudga keladi. Bu juda katta xatoliklardan hisoblanib, yillar davomida o’quvchi uchun muammo tug’dirishi mumkin. Fikrimcha, bartaraf etish uchun fonetik va logopedik, orfografik mashg’ulotlar ustida ko’p ishlash kerak.

I. Zarubinning ta’kidlashicha, o’bek va tojik tillaridagi aralashish masalasi - bu ikki xalqning uzoq yillar davomida olib borgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar natijasidir.

M. Zokirovning “Lingvistik interferensiya va uning o’zbek-tojik bilingvizmida namoyon bo’lishi” bilingvizm-ikkitillilik haqida ham keng yoritib berib ketishgan.

Ma’lumki, O’zbekistonning Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlari hamda Farg’ona vodiysining ko’plab hududlarida o’zbek va tojiklar birga yashab kelgan. Bu birlik o’zbek va tojiklar birga yashab kelgan. A. Vohidovning talqiniga ko’ra, birgina Samarqanddagi tojik-o’zbek ikkitilliligi jarayoning tarqalishi ko’lamini quyidagi holatlarga ko’ra mushohada qilish mumkin:

- Ikki xalqning bir mintaqada yonma-yon yashashi ;
- hayotning turli jabhalarida ikki o’zbek va tojik tillarida olib boriladigan kundalik faoliyat;
- o’zbeklar yashaydigan qishloqlarga tojiklar kirib borishi ;
- davlatning ish yuritish faoliyati;
- iqtisodiy aloqalar (bozor, xizmat va tijorat maqsadlarida o’zbek qishloqlariga qilinadigan safarlar).

Tojik xalqining tarixiy shakllanishida o’zbek xalqining ota-bobolari katta hissa qo’shgandek, o’zbek xalqining shakllanishida ham tojik xalqining ota-bobolari katta hissa qo’shganlar.

Xozirgi kunda bilingvizmning kognitiv afzalligi juda tushunarli ko’rinadi. Ammo o’z vaqtida bu ekspertlarni lol qoldirgan. XX asrning 60-yillarigacha ikki tillilik, tillar orasida doimiy o’tishi kerak bo’lgan energiyani sarflagani uchun bola rivojlanishini sekinlashtiradigan to’siq deb qaralgan. Ushbu nuqtai nazar birinchi navbatda noto’g’ri bo’lgan ilmiy ishlarga asoslangan edi.

Oxirgi paytdagi tadqiqotlar bir necha til bilish insonning qator qabul qilish, vazifalar o’rtasida o’tish, e’tiborni jamlash kabi fazilatlarni rivojlantirishga olib kelishini tasdiqlab berdi.

Bilingvizmning ijobiy natijalari aks ettirilgan ilk tadqiqot 1962-yilda chop etilgan. Elizabet Pill va Uolles Lambert Monrealda ingliz va fransuz tilida so’zlashadigan hamda faqatgina fransuz tilida so’zlashadigan bolalarni taqqoslab tadqiqot o’tkazdi. Ular tadqiqot to’g’ri olib borilganda bilingv bolalar og’zaki bo’lmagan vazifalarni monolingv bolalar kabi bajara olishini, ogzaki topshiriqlarni

esamonolingv bolalarga qaraganda yomonroq bajarishini taxmin qildi. Biroq, dastlabki prognozlardan farqli bilingv bolalar barcha imtixonlardan yaxshi o'tdi.

Oxirgi paytlardagi tadqiqotlar bir necha til bilish insonning qator qabul qilish, vazifalar o'rtasida o'tish, e'tiborni jamlash kabi fazilatlarni rivojlanishiga olib kelishini tasdiqlab berdi.

Bilingvist bolalarning miyasi bir necha sezilarli afzalliklarga ega bo'ladi. Ba'zilarini xattoki ko'rish mumkin: kulrang moddaning ko'proq zichlikka ega bo'lishi hisoblanadi. Bundan tshqari ikki tilni ishlatganda miyaning ba'zi bir qismlarining faollashishini ko'rish kuzatiladi. Buni sodda qilib aytganda, miyani charxlash deymiz.

Bilingv bolalar ikki tilda oilada va ko'chada so'zlashuv muhitida bo'lgani uchun ham har ikkala tilda bemalol, ravon so'zlash oladi. Biroq, ular monolingv bolalarga qaraganda har ikki tilda ham kamroq so'z boyligiga ega bo'ladilar. Buni kamchilik deb olmaymiz, ular har ikki tilni ham baravar o'rganadilar.

Logopedlarning fikricha, endigina gaprishga o'rganayotgan bolaga dastlab muqobil bir til o'rgatilmasdan, ikki tilda gapirilsa, bola nutqi sekin va nuqsanli shakllanar ekan. Bu ham amalda tasdiqlangan faktlardan biri hisoblanadi.

Savodxonlik borasida bilingvlar ancha qiynalishadi. Ikkala tilni savodli o'rganish uchun ikki til yozuvi bir xil tizimli bo'lishi kerak. Agar farqlansa, bola salohiyatiga tayanish o'rinli.

Muammoli vaziyatlar duch kelganida bilingvlar monolingvlarga qaraganda tashabbuskorroq bo'lishadi. Vaziyatlarni oson hal qilishadi.

Bilingvizm tilni murakkablashtiradi. Ular doim ikki tildan birini tanlashi kerak bo'ladi. Bu miya programmasini doimo o'zgartirishni talab etadi. Natija shuki, miyada qarish jarayoni sekinlashadi. Ijobiy ravishda bilim olish qobiliyatini ham yuksaltiradi.

Trilingvizm va multilingvizm nima? Trilingvizm-uch, multilingvizm-undan ham ko'p til bilish qobiliyatiga ega shaxslar.

U ko'p tilni bilishning ijobiy tomonlari bilan birga, salbiy tomonlari ham bor ekan. Katta yoshlilarda qancha ko'p til bilsa, shuncha aqliy barqarorligi himoyalanganligi tajribalarda aks etgan.

Fikrimcha, inson o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, ma'lum tilni o'zlashtirishi, shu tilni mukammal egallay olishi yomon natija emas.

O'zbek mumtoz adabiyotining (o'rta asrlar) ko'pgina vakillari ham fors tilini yaxshi bilganlar. Masalan, bobomiz Alisher Navoiy hazratlari o'z ona tili-turkiy til bilan bir qatorda fors tilni ham juda yaxshi bilganlar. Bu tildagi asarlarni to'lab devon ("Devoni Foni") tuzganlar. Bu devon forsiy til shoirlari, hususan, Jomiy tomonidan yuksak baholangan.

Hazrat Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayin" (ikki til muhokamasi, 1499) tilshunoslikka oid asarlaridan biri. Navoiy "Muhokamat ul-

lug'atayin"da o'zbek tilining boyligini,qudratini,o'sha zamonning adabiy tillari qatoridan o'rin olishiga qodir va haqli ekanligini ilmiy tomonda isbotladi.Asarda o'zbek(turkiy) va fors tillari unli tovushlar,leksika va morfologiya doirasida o'zaro qiyoslanadi.Dastlab har ikki tildagi unlilar qiyoslangan,shoir fors tilida unlilar soni cheklanganligi,o'zbek tilida esa unlilar bir qancha ma'no farqlovchi variantlarga ega ekanligi va ular o'zaro uzun-qisqaligi bilan ajralib turishini dalil bilan ko'rsatib bergan.

Alisher Navoiy so'zlarining ko'p ma'noliligini,sinonimlar jihatidan ham o'zbek tilning imkoniyati kengligini,ularning she'riyat turli nozik ma'nolarni ifodalashidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Ma'lumki, qaysi til ma'noni qisqa yo'l bilan ifodalay olsa,shu til rivojlangan til ekanini shoir zaruriy misollar bilan ko'rsatib beradi.

Navoiy o'zbek tilining boyligini va qudratini,ifodaviy imkoniyatini asosli tahlil etib,quyidagi hulosaga keladi: o'zbek tilida bu xildagi nozik ma'noli so'z va iboralar ko'p,ammo "bu kunga deginch hech kishi haqiqotig'a mulohaza qilmog'on jihatidan bu yashirun qolibdur...hunarsiz turkning sitam zarif yigitlari osonliqqa bo'la forsiy alfoz bila nazm ayturg'a mashg'ul bo'libturlar".Shuning uchun Navoiy o'zbek shoirlarini o'z tilida ijod qilishga da'vat etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki,aynan o'zbek va tojik tilida so'zlashadigan bolalarning unli harflarda harf almashinuviga sabab ham unli tovushlarning mutloqligi ham sabab bo'lishi mumkin.

Ikki tilda ijod qiladigan adiblar hozir ham uchraydi.Jumladan,Chingiz Aytmatov qirg'iz va rus tillarida erkin ijod qiladigan yozuvchidir.

Umuman ikki tillilik ijtimoiy hodisa sifatida tillarning boyishi,rivojlanishi umumbashariy madaniy saviyaning oshishiga muhim ta'sir etuvchi omildir.Tillarning bir-biriga har qanday ta'sir ko'rsatishi bilingvist odamlar bo'lishini talab etadi.

O'zbekiston respublikasida rus tili keng o'rganiladi va mamlakat hayotida o'z mavqei va o'rniga ega.Mamlakat aholisining katta qismi o'zbek va rus tillarini bilgani bois,ularni bilingvistlar deb atasak bo'ladi.Rus tili bilan birga boshqa chet tillari ham o'rgatilmog'qa.

Bundan kelib chiqadiki,endilikda bilingvizm ijobiy qarashlar bilan hayotimizda kundalik va zamon talabi darajasi sifatida qaraladi.

Prezidentimizning xorijiy tillarni o'qitishga qaratilayotgan e'tiborlarini e'tirof etib o'tishni joiz topdim.

Oilada va maktabda bolalarning nutqiy harfiy xatoliklarini oldini olishda nafaqat ota-ona,logoped,stomatologlar,balki biz pedagoglarning ham ahamiyatimiz katta deb o'ylayman.Bolani kichik yoshdan har ikki tilni ham o'rganishida avval ona tilini to'liq o'rgatishga,qolaversa xorijiy tilni ham to'g'ri talaffuz qilish malakasini shakllantirishimiz shart.O'qituvchi orfografik,fonetik mukammallikka ega bo'lish kerak deb o'ylayman.

Zero, bir buyuk kelajak bunyodkorlarimiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'Z M.I. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Зарубин И. Список народностей туркестанского края. - Ленинград, 1925-С.6.
3. Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг узбек-тожик билингвизмида намоён булиши. Ф.ф.н. дисс. автореферати. - Тошкент, 2007. - 266.
4. Vohidov A. Samarqand tojiklari kommunikativ munosabatida nomunilgvizmning namoyon bo'lishi // O'zbek tili va adabiyoti, 2005, №3. - Б.115-116.
5. Yusupov K. O'zbek va tojik tillarining o'zaro ta'siri. - Toshkent, 1974. Б.5.
6. Nashr: Navoiy, Asarlar (15j.li), 14-j., Т., 1967;
7. Navoiy, Mukammal asrlar to'plami (20j.li), 16-j., Т., 2000.
8. Daryo.uz internet ma'lumotlari.